

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA FILIPPIN RESPUBLIKASI DAVLATLARINING JINOYATCHILIK QONUNCHILIGINING O‘ZARO TAHLILI

Axatjonov Sarvar Anvarjon o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20210664>



*Annotsiya.* Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Filippin Respublikasi jinoyat-protsessual tizimlarida ishni sudga qadar yuritish, jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv hamda dastlabki tergov institutlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalari hamda Filippin Respublikasining Rule 110 va Rule 112 qoidalari asosida sudgacha bo‘lgan protsessual bosqichlarning mazmuni, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Maqolada jinoyat ishini qo‘zg‘atishning asoslari va sabablari, tergovga qadar tekshiruvning ahamiyati, surishtiruv va dastlabki tergovning protsessual tartibi hamda prokuror nazoratining o‘rni batafsil ochib berilgan. Shuningdek, Filippin tizimidagi “probable cause” instituti, preliminary investigation jarayonidagi kontradiktorlik tamoyili va protsessual kafolatlar O‘zbekiston tajribasi bilan qiyoslangan.

Tahlil natijasida O‘zbekiston tizimi tezkorlik va operativlikka asoslanganligi, Filippin tizimi esa sudga qadar chuqur tekshiruv va shaxs huquqlarini kengroq himoya qilishga yo‘naltirilganligi aniqlangan. Muallif ikki davlat tajribasini qiyoslash orqali jinoyat-protsessual faoliyatni takomillashtirishga oid ilmiy xulosalar va amaliy ahamiyatga ega fikrlarni ilgari surgan.

### **Kirish**

Jinoyat-protsessual qonun tizimida ishni sud oldida o‘tkazish bosqichi alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan shu bosqichda jinoyat to‘g‘risidagi ariza, xabar yoki boshqa ma‘lumotlar dastlabki tartibda belgilanadi, jinoyat belgilarining mavjudligi aniqlanadi va keyingi faoliyat tartibi yo‘nalishi aniqlanadi. Sudgacha bo‘lgan jarayonni huquqiy, xolis va samarali tashkil etish jinoyat ishini adolatli hal etishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, Moderna jinoyat-protsessual tizimlarida tergovgacha ekspertiza, jinoiy ta‘qib, tergov va dastlabki tergov institutlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ishni sudga berish tartibi jinoyat-protsessual kodeksi qoidalari bilan tartibga solinadi, unda jinoyatlarning tezkorligi, qonuniyligi va o'z vaqtida fosh etilishi tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish Milliy Jinoyat-protsessual tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Filippin Respublikasining Jinoyat-protsessual tizimi sudgacha bo'lgan bosqichdagi protsessual kafolatlarning kengligi, "ehtimoliy sabab" mezoni, shuningdek, dastlabki tadqiqot institutining chuqur huquqiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Ushbu moddaning maqsadi O'zbekiston va Filippin Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida, jinoiy ta'qib qilish, tergov va dastlabki tergov muassasalarida sudgacha bo'lgan protseduralarning umumiy shartlarini qiyosiy huquqiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida ikkala davlat qonunchiligidagi o'xshash va farqli jihatlar ta'kidlanib, ularning amaliy ahamiyati ochib berildi. Shuningdek, sudgacha protsessual faoliyatni samarali tashkil etish, shaxs huquq va erkinliklarini kafolatlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi

### **Adabiyotlarni tahlili va metodlar**

Ushbu maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi va Filippin Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va elektron manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining normalari, xususan, sudgacha ish yuritish, jinoyat protsessi, tergov va dastlabki tergov institutlarini tartibga soluvchi moddalar o'rganildi.

Ayni paytda, Lex.uz Qonunchilik milliy huquqiy asosda va unga rasmiy sharhlarda ishlatilgan. Filippin Respublikasining Jinoyat-protsessual tizimini o'rganishda ESA 110 va 112-qoidalarining qoidalari, Filippin Konstitutsiyasining tegishli qoidalari va xalqaro huquqiy elektron manbalar asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Xususan, ehtimoliy sabablar institutining protsessual tabiati, dastlabki tergov jarayoni va fiskal nazorat to'g'risidagi huquqiy normalar qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, yuridik adabiyotlarda Jinoyat-protsessual nazariyasi, protsessual kafolatlar, sudgacha bo'lgan bosqichning ahamiyati va jinoyat protsessining huquqiy mohiyati bo'yicha ilmiy nuqtai nazarlar o'rganildi. Tahlil jarayonida O'zbekiston va Filippin tizimlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning protsessual yondashuvlari ilmiy asosda baholandi.

### **Tadqiqot texnikasi**

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy va uslubiy metodlardan foydalanilgan.

Avvalo, qiyosiy huquqiy usul yordamida O'zbekiston Respublikasi va Filippin Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi taqqoslandi, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Rasmiy-huquqiy usul orqali Jinoyat-protsessual kodeksining qoidalari, 110-qoida va 112-qoida mazmuni qonuniy ravishda sharhlandi. Tizimli tahlil usuli yordamida ishni sudgacha o'tkazish bosqichining tarkibiy qismlari (tergovgacha ekspertiza, jinoiy ta'qib, tergov va dastlabki tergov muassasalari) o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

Bundan tashqari, tahliliy va mantiqiy usullar asosida sudgacha protsessual faoliyatning maqsadi, vazifalari va protsessual kafolatlarning ahamiyati ta'kidlandi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va elektron manbalardan o'rganish usullari hamda umumlashtirishlardan keng foydalanildi.

### Muhokama va natijalar

**Ishni sudga qadar yuritishning umumiy shartlari. Jinoyat ishini qo'zg'atish. Surishtiruv va dastlabki tergov. Dastlabki tergovning umumiy shartlari.**

Ishni sudga qadar yuritishning umumiy shartlari.

Ushbu jarayon shuni anglatadiki, bunda jinoyat ishini sud bosqichiga yetkazguncha amalga oshiriladigan barcha protsessual harakat va ular uchun belgilangan asosiy qoidalar majmui tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi maxsus qism, IX bo'lim Ishni sudga qadar yuritish. 40<sup>1</sup>-bob. Ishni sudga qadar yuritishning umumiy shartlari. 320<sup>1</sup>-320<sup>2</sup>-320<sup>3</sup>-moddalarni o'z ichiga oladi. JPK 320<sup>1</sup>-moddasida ishni sudga qadar yuritishni shakllari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, unga ko'ra, ishni sudga qadar yuritish jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanadi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o'z ichiga oladi. 320<sup>2</sup>-moddasiga muvofiq esa, tergovga qadar tekshiruv - jinoyat haqida kelib tushgan ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlarni dastlab tekshirish jarayonidir. Bu bosqichda vakolatli organlar shu ma'lumotlar haqiqatan ham jinoyat bilan bog'liqmi yoki yo'qmi, shuni aniqlaydi va natijada tegishli qaror qabul qiladi va shunga asosan jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish haqida qaror qabul qiladi. Shuningdek, bu jarayonda keyinchalik ish uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan dalillar ya'ni, jinoyat izlari, turli buyumlar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar yo'qolib ketmasligi yoki buzilmasligi uchun ularni mustahkamlash va saqlash choralari ko'riladi.

Tergovga qadar tekshiruv qonunda belgilangan organlar tomonidan, maxsus protsessual qoidalarga rioya qilgan holda o'tkaziladi. Uni nafaqat shu organlar, balki surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ham amalga oshirishi mumkinligi haqida batafsil belgilab berilgan. 320<sup>3</sup>-moddada Jinoyat ishini tergov qilish haqida yozilgan bo'lib, unga ko'ra, **jinoyat ishini tergov qilish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:**

1. Surishtiruv
2. Dastlabki tergov

**Dastlabki tergov** - Kodeksning 345-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar bo'yicha, ya'ni odatda og'irroq va murakkab ishlar yuzasidan o'tkaziladi. Shuningdek, ayrim holatlarda qonunda alohida ko'rsatilgan vaziyatlarda ham aynan shu shakl qo'llanadi.

**Surishtiruv** esa Kodeksning 381<sup>2</sup>-moddasida nazarda tutilgan, odatda unchalik og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha olib boriladi.

Shu bilan birga, agar surishtiruv yetarli bo'lmay, ishni to'liq, har tomonlama va xolis o'rganish zarur bo'lsa, **prokuror maxsus asoslantirilgan qaror chiqarib**, bunday ishni surishtiruvdan olib, **dastlabki tergovga o'tkazishi mumkin.**

Endi shu holat bo'yicha Filippin Respublikasi qonunchiligiga yuzlanadigan bo'lsam, Rule 110-Prosecution of Offenses. Section 1. Institution of criminal actions. Deb nomlanadi va ular (a) va (b) partlar va sectionlarga bo'linadi. Ushbu normaga muvofiq, Filippin jinoyat-protsessual qoidalariga ko'ra jinoyat ishini yuritish tizimi ariza yoki ayblov hujjati kelib tushgan paytdan boshlanadi va sudgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Bu tizimda jinoyat ishining qo'zg'atilishi, uni dastlabki tekshirish va keyinchalik sudga yuborish tartibi aniq belgilab qo'yilgan.

Avvalo, jinoyat ishi "complaint" yoki "information" deb ataluvchi yozma hujjatlar orqali boshlanadi. "Complaint" - bu jabrlanuvchi yoki vakolatli shaxs tomonidan qasamyod asosida yozilgan va jinoyat sodir etilganini ko'rsatuvchi ariza hisoblanadi. "Information" esa prokuror tomonidan tayyorlanadigan va shaxsga nisbatan ayblov qo'yilganini ifodalovchi rasmiy hujjatdir.

Ushbu hujjatlar sudga yoki tegishli organlarga taqdim etilishi bilan jinoyat ishini yuritish jarayoni rasman boshlanadi. Agar jinoyat og'irroq bo'lib, maxsus tartib talab qilinsa, ishni sudga yuborishdan oldin albatta dastlabki tergov o'tkaziladi. Bu bosqichda prokuror yoki vakolatli organlar jinoyat haqidagi ma'lumotlarni chuqur tekshiradi, guvohlar ko'rsatmasi, dalillar va boshqa materiallarni o'rganadi hamda jinoyat tarkibi mavjud yoki yo'qligini aniqlaydi. Tekshiruv natijasiga ko'ra ish sudga yuborilishi yoki rad etilishi mumkin. Bundan tashqari, jinoyat ishlari odatda prokuror nazorati ostida yuritiladi. Prokuror ishning qonuniy, asosli va yetarli dalillarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ba'zi holatlarda, agar prokuror ishtirok eta olmasa, jabrlanuvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ham ishni yuritishi mumkin, biroq bu vakolat vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, prokuror ishga qo'shilishi bilan tugaydi.

Umuman olganda, Filippin jinoyat-protsessual tizimi jinoyat ishini sudga qadar puxta tekshirishga asoslangan bo'lib, uning asosiy maqsadi - asossiz ayblovlarning sudga chiqib ketishining oldini olish va faqat yetarli dalillar mavjud bo'lgan ishlarni sud muhokamasiga yuborishdan iboratdir.

#### **Jinoyat ishini qo'zg'atish.**

Jinoyat ishini qo'zg'atish deganda - jinoyat haqida kelib tushgan ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlarda jinoyat alomatlari mavjudligi aniqlangandan so'ng, vakolatli organ (surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror) tomonidan jinoyat ishini yuritishni rasman boshlash to'g'risida qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 41-bob.

Jinoyat ishini qo'zg'atish deb nomlanadi va 321-moddadan 338-moddaga qadar bo'lgan normalarni o'z ichiga oladi. Ushbu normalarga qisqacha to'xtalib o'tsam, 321-moddaga muvofiq, jinoyat sodir etilganligi haqida ma'lumot kelib tushganda uni tasdiqlovchi sabablar va yetarli asoslar mavjud bo'lsa, vakolatli shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atishga majbur hisoblanadi ya'ni, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi o'z vakolati doirasida jinoyat alomatlarini aniqlasa va ularni tasdiqlovchi yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, u holda jinoyat ishini qo'zg'atishdan bosh tortishga haqli emas, balki uni albatta qo'zg'atishi shart. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 322-moddasiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladigan holatlar aniq belgilab qo'yilgan.

Jinoyat ishini qo'zg'atishning sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, shaxslarning arizalari, ya'ni fuqarolar tomonidan jinoyat haqida berilgan yozma yoki og'zaki murojaatlar.

Ikkinchidan, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslar bergan xabarlar, ya'ni rasmiy idoralar tomonidan bildirilgan ma'lumotlar.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari (OAV) xabarlarini, ya'ni gazeta, televideniye yoki internet orqali tarqatilgan jinoyat haqidagi ma'lumotlar.

To'rtinchidan, vakolatli organlarning o'zlari tomonidan jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi, ya'ni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki tergovga qadar tekshiruv organlari jinoyat izlari yoki holatlarini o'zlari topishi.

Beshinchidan, shaxsning aybini bo'yniga olish haqidagi arzasi, ya'ni shaxs o'zi jinoyat sodir etganini tan olishi. Shu bilan birga, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun faqat sababning o'zi yetarli emas. Qonunga ko'ra, jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar bo'lishi shart va aynan shu ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos hisoblanadi.

Filippin davlati bilan qiyoslaydigan bo'lsam, RULE 112 – PRELIMINARY INVESTIGATION da keltirilgan bo'lib, u 9 ta sectionni o'z ichiga oladi va har bitta section yana yana o'z ichida (a), (b), (c) kabi bandlarga bo'linadi. Unga ko'ra Filippin tizimida preliminary investigation jinoyat ishini sudga qadar bosqichda tekshirish mexanizmi bo'lib, unda “probable cause” - ya'ni jinoyat sodir etilganligi va shaxsning ehtimoliy aybdorligi haqida yetarli asos mavjudligini aniqlash asosiy mezon hisoblanadi. Filippin tizimida ham, O'zbekistondagi kabi, shikoyat yoki ma'lumot kelib tushgach, vakolatli organlar uni tekshiradi. Biroq Filippin modelida protsessual kafolatlar yanada batafsil tartibga solingan. Masalan, respondentga (gumon qilinuvchiga) dalillarni ko'rish, qarshi bayonot berish (counter-affidavit) va guvohlar keltirish huquqi beriladi. Shuningdek, ba'zi hollarda u to'g'ridan-to'g'ri sudga o'tmasdan oldin kengroq yozma protseduralar orqali o'z himoyasini taqdim etadi. O'zbekiston modelida esa jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi nisbatan tezkor va soddalashtirilgan bo'lib, asosiy maqsad jinoyat alomatlarini aniqlash va ishni rasmiy yuritishni boshlashdir. Filippin tizimida esa bu bosqich ko'proq “filtr” vazifasini bajaradi, ya'ni asossiz ishlarning sudga borishini oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki davlat tizimida ham asosiy maqsad jinoyat ishini qonuniy va asosli ravishda yuritishdir. O'zbekistonda jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi tezkor qaror qabul qilishga qaratilgan bo'lsa, Filippinda preliminary investigation chuqurroq tahlil va protsessual himoya kafolatlari bilan ajralib turadi. Bu esa ikki huquq tizimining o'ziga xos yondashuvlarini ko'rsatadi: biri tezkorlik va muqarrarlikka, ikkinchisi esa batafsil tekshiruv va protsessual tenglikka urg'u beradi. Filippin huquq tizimida preliminary investigation **Filippin Jinoyat-protsessual qoidalari (Rules of Criminal Procedure, Rule 112)** bilan tartibga solinadi. Ushbu bosqichning markaziy mezoni “probable cause” tushunchasidir. “Probable cause” Filippin Konstitutsiyasi III-modda, 2-bo'limi (Article III, Section 2) da ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u shaxs jinoyat sodir etganligi ehtimolini asoslovchi yetarli faktlar mavjudligini anglatadi. Demak, prokuror yoki vakolatli organ sudga ish yuborishdan oldin dalillar yetarliligini chuqur tahlil qiladi.

Preliminary investigation jarayoni kontradiktor xarakterga ega bo'lib, unda taraflar teng huquqli ishtirok etadi. Shikoyat beruvchi o'z arizasini affidavit shaklida taqdim etsa, respondent, ya'ni gumon qilinuvchi - **counter-affidavit** orqali o'z himoyasini bildiradi. Bundan tashqari, u qo'shimcha dalillar keltirish, guvohlar taqdim etish va advokat yordamini olish huquqiga ega.

Ushbu bosqichning muhim jihati shundaki, ish sudga yuborilishidan oldin ham shaxs o'zini to'liq himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa tizimni “filtr” vazifasini bajaruvchi institutga aylantiradi.

O'zbekistonda esa jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki tekshiruv bosqichi **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)** bilan tartibga solinadi. Bu bosqichda asosiy e'tibor jinoyat haqidagi xabar yoki arizani tezkor ko'rib chiqish va jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlashga qaratiladi. Vakolatli organlar shikoyatni qabul qilgach, uni ro'yxatga oladi va dastlabki tekshiruvni boshlaydi. Bu jarayonda tushuntirishlar olinadi, tezkor-surishtiruv harakatlari amalga oshiriladi hamda mavjud ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Ikki tizimni qiyoslaganda, eng muhim farq ularning protsessual yondashuvida namoyon bo'ladi. Filippin tizimi sudga qadar bosqichni chuqur tahlil va keng protsessual kafolatlar asosida quradi. Unda "probable cause" standartini aniqlash uchun kontradiktor tartib, yozma himoya va dalillarni to'liq o'rganish mexanizmi mavjud. Bu esa asossiz ishlarning sudga chiqishini oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston tizimi esa tezkorlik va samaradorlik tamoyiliga asoslangan. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi ortiqcha protsessual murakkabliklarsiz amalga oshiriladi, bu esa huquqni muhofaza qilish organlariga tez harakat qilish imkonini beradi. Biroq bu modelda batafsil kontradiktor tekshiruv odatda keyingi bosqichlarga ko'chiriladi.

#### **Xulosa va natijalar**

Filippin va O'zbekiston jinoyat protsessual tizimlari bir xil maqsad -adolatli va qonuniy jinoiy ta'qibni ta'minlashga xizmat qiladi, biroq bu maqsadga erishish yo'llari turlicha. Filippin modeli protsessual kafolatlar va chuqur tekshiruvga urg'u bersa, O'zbekiston modeli tezkorlik va operativlikni ustuvor qo'yadi. Har ikki yondashuv ham o'z huquqiy tizimi va amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, ularning farqi huquqiy madaniyat va protsessual falsafadagi o'ziga xosliklarni aks ettiradi.

Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq ishni sudga qadar yuritish jinoyatga oid ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlar vakolatli organlarga kelib tushgan paytdan boshlanadi. Ushbu jarayon o'z ichiga ikki asosiy bosqichni oladi:

1. **Tergovga qadar tekshiruv,**
2. **Jinoyat ishini tergov qilish.**

Demak, jinoyat protsessi dastlabki ma'lumotlar kelib tushgan zahoti ishga tushadi va keyingi protsessual harakatlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruv (JPK 344-modda)

322-moddaga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlarni dastlabki tekshirish bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda vakolatli organlar quyidagilarni aniqlaydi:

1. Kelib tushgan ma'lumotlar jinoyat bilan bog'liqmi yoki yo'qmi;
2. Jinoyat alomatlari mavjudmi;
3. Ish qo'zg'atish uchun asos bormi yoki yo'qmi.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

1. Jinoyat ishini qo'zg'atish;
2. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish.

Shuningdek, bu bosqichda eng muhim jihatlardan biri — dalillarni saqlash va mustahkamlash hisoblanadi. Jinoyat izlari, hujjatlar, buyumlar va elektron ma'lumotlarning yo'qolib ketmasligi yoki buzilmasligi uchun zarur protsessual choralar ko'riladi.

**Surishtiruv** esa Jinoyat-protsessual kodeksining 381<sup>2</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar, ya'ni nisbatan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha olib boriladi.

Agar surishtiruv jarayonida ishni to'liq, har tomonlama va xolis o'rganish zarurati tug'lsa, prokuror asoslantirilgan qaror bilan ishni surishtiruvdan olib, dastlabki tergovga o'tkazishi mumkin.

Dastlabki tergovning yana bir muhim sharti - protsessual yozma shaklning ustunligidir.

Filippin tizimida ko'pchilik protsessual harakatlar yozma affidavitlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa jarayonni hujjatlashtirish va keyinchalik sudda dalil sifatida foydalanishni osonlashtiradi. Shuningdek, **muddat jihatidan cheklov** ham muhim ahamiyatga ega. Rule 112 ga ko'ra, dastlabki tergov odatda 60 kun ichida yakunlanishi kerak. Bu norma ishlarning cho'zilib ketishini oldini olish va tezkor adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston bilan qiyosiy jihatdan qaralganda, dastlabki tergov instituti O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi asosida amalga oshiriladi. O'zbekistonda dastlabki tergov asosan og'ir va murakkab jinoyatlar bo'yicha olib boriladi, surishtiruv esa yengilroq jinoyatlar uchun qo'llanadi. Agar zarurat tug'lsa, prokuror surishtiruvni tugatib, ishni dastlabki tergovga o'tkazishi mumkin. Biroq Filippin tizimida dastlabki tergov har doim markaziy ahamiyatga ega bo'lib, u deyarli barcha jiddiy jinoyatlar uchun majburiy bosqich hisoblanadi. Bu esa uni kuchli "sudgacha filtr"ga aylantiradi. O'zbekiston tizimi esa ko'proq ichki bosqichlarga bo'lingan: tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov alohida institutlar sifatida mavjud.

Dastlabki tergovning umumiy shartlaridan yana biri - **prokuror nazorati ustuvorligidir**.

Filippinda prokuror nafaqat ishni sudga yuboradi, balki butun tergov jarayonini huquqiy jihatdan baholaydi. Agar "probable cause" mavjud bo'lmasa, u ishni rad etadi. Bu esa shaxsni asossiz sud jarayonidan himoya qilishga xizmat qiladi.

Yo'nalish	O'zbekiston (JPK)	Filippin (Rule 110–112)
<b>Tizim yondashuvi</b>	Bosqichma-bosqich (tekshiruv → qo'zg'atish → tergov)	Prokuror markazlashgan (complaint/information → preliminary investigation)
<b>Asosiy mezon</b>	Jinoyat alomatlari	Probable cause
<b>Boshlanishi</b>	Ariza yoki xabar kelib tushishi	Complaint yoki Information
<b>Jinoyat ishini qo'zg'atish</b>	Asos bo'lsa majburiy qo'zg'atiladi	Prokuror qarori bilan sudga yuboriladi yoki rad etiladi
<b>Tergov turi</b>	Surishtiruv (yengil) va dastlabki tergov (og'ir)	Asosan preliminary investigation
<b>Himoya huquqlari</b>	Asosan tergov bosqichida kuchayadi	Sudgacha bosqichdayoq to'liq (counter-affidavit)
<b>Asosiy maqsad</b>	Tezkor ish yuritish va	Faqat asosli ishni sudga yuborish

Yoʻnalish	Oʻzbekiston (JPK)	Filippin (Rule 110–112)
	jinoyatni aniqlash	
Umumiy xulosa	Operativ va tezkor tizim	Kuchli filtr va chuqur tekshiruv tizimi

Filippin jinoyat-protsessual tizimida dastlabki tergov yuqori darajada institutsionallashtirilgan, kontradiktor va huquqiy kafolatlar bilan boyitilgan bosqich hisoblanadi. **Rule 110 va Rule 112** normalariga asoslangan ushbu tizimning asosiy maqsadi - faqat yetarli dalillarga ega boʻlgan ishlarni sudga yuborish, shaxs huquqlarini sudgacha boʻlgan bosqichdayoq himoya qilish va adolatli protsessni taʼminlashdir.

Shu jihatdan Filippin modeli Oʻzbekiston tizimiga nisbatan koʻproq protsessual “filtr” va “himoya kafolati”ga ega ekani bilan ajralib turadi. Oʻzbekiston tizimi tezkorlik va bosqichma-bosqich ish yuritishga asoslangan boʻlsa, Filippin tizimi “probable cause”ga tayangan holda chuqur tekshiruv va protsessual kafolatlarni kuchliroq taʼminlaydi.

### References

1. Oʻzbekiston Respublikasi. (2023). *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Oʻzbekiston Respublikasi. (n.d.). *Jinoyat kodeksi*. <https://lex.uz/docs/-111453>
3. Constitution of the Republic of the Philippines. (1987). <https://lawphil.net/consti/cons1987.html>
4. Republic of the Philippines. (1987). *The 1987 Constitution of the Republic of the Philippines* (PDF). <https://hrlibrary.umn.edu/research/Philippines/PHILIPPINE%20CONSTITUTION.pdf>
5. Oʻzbekiston Respublikasi. (n.d.). *Jinoyat-protsessual kodeksi*. <https://lex.uz/mact/-111460>